

ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000

# JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 4 **2026**



ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000



# «MAMUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 4



TOHKENT-2026

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№4 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-4>

Бош мухаррир: | Главный редактор:  
Chief Editor:

**Matyakubov Umidjon Raximovich**  
(i.f.d., prof.)

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель  
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

**Xudonazarov Egambergan Madrahimovich**  
(PhD., dots.)

## TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

### FILOLOGIYA FANLARI

**O'rozboyev Abdulla Durdibayevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Axmedov Oybek Saporboyevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Galiyeva Margarita Rafaelovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

**Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### TARIX FANLARI

**Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev**

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Ashirov Adhamjon Azimbayevich**

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

**Shaydurov Vladimir Nikolayevich**

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

**Abdullayev Utkir Ismoilovich**

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

**Matkarimova Sadoqat Maqsudovna**

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

**Abdullayev Timur Pulatovich**

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

**Abdalov Umidbek Matniyazovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

**Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

### PSIXOLOGIYA FANLARI

**Shoumarov G'ayrat Baxromovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Kryukova Tatyana Leonidovna**

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

**Karpinskiy Konstantin Viktorovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

**Urazbayeva Dilbar Abdullayevna**

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

**Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna**

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

**Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

### IQTISODIYOT FANLARI

**Ruzmetov Baxtiyar**

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

**Sherov Alisher Bakberganovich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

**Voronsova Yuliya Vladimirovna**

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

**Jabborov Umarbek Rustambekovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

**Cho'ponov San'at Otanazarovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

**Niyazmetov Islambek Masharipovich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

## PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

### **Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

### **Adilov Zafar Yunusovich**

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Boltayev Abdurahim Amanovich**

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Zoirov Erkin Xalilovich**

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

### **Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

## TIBBIYOT FANLARI

### **Yuldashev Baxrom Sobirjanevich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Abdullayev Ravshanbek Babajonovich**

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Esamuratov Aybek Ibragimovich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Samandarova Barno Sultonovna**

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Tajiyeva Zebo Baxodirovna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

## ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

### **Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li**

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

ООО Тадqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

IQTISOD

- 1. Odilbekova Xonimjon Jahongir qizi. Rudenko Inna Yurevna.**  
 QATTIQ MAISHIY CHIQUINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH:  
 XORIJIY TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON UCHUN ISTIQBOLLAR.....8
- 2. S.M.Raximova. V. M. Baxtiyarova.**  
 RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONIDA TIBBIY XIZMATLAR  
 KO‘RSATISHNI MOLIYALASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....13
- 3. S. Allayarov.**  
 MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA STARTAP LOYIHALARDAN  
 FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI.....16
- 4. Matyoqubov Arslonbek G'ayrat o'g'li.**  
 EKSPORT INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQA  
 RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA’SIRI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....20
- 5. Matkarimov Feruz Bekturdiyevich.**  
 MINTAQA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARINING GLOBAL BOZORDA  
 RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI.....27
- 6. Yulduz Yaqubova Raimovna.**  
 OZIQ-OVQAT SANOATIDA TEXNIKA TARAQQIYOTI, INNOVATSION  
 TRANSFORMATSIYA VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....33
- 7. Masharipova Xosiyat Matrasulovna. Xalbayeva Maftuna.**  
 XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTIDA EKOLOGIK OMILLAR VA BARQAROR  
 HUDUDIY RIVOJLANISH MASALALARI.....38
- 8. Sattarova Dilfuza Dilshodbekova.**  
 O‘ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY  
 ASOSLARINING YARATILISHI.....43
- 9. Ismailova Gulruh Faxriddinovna.**  
 INSON KAPITALIGA INVESTITSIYALAR VA HUDUDIY IQTISODIY NOMUTANOSIBLIK:  
 MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI.....48
- 10. Jumaniyazova Sharifa Rashidovna.**  
 TURISTIK MAHSULOTLAR BOZORIDA MARKETING STRATEGIYALARINI  
 RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....54
- 11. Li Yang.**  
 EDIGITAL SILK ROAD AND SUSTAINABLE TOURISM: ANALYZING THE ADAPTATION  
 OF CHINESE DIGITAL PLATFORMS IN UZBEKISTAN.....58
- 12. Sharipova Asaloy. Rudenko Inna Yurevna.**  
 THE EFFECTIVENESS OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN WATER RESOURCE  
 MANAGEMENT.....64

**13. Турдиева Якитжан Хайитбаевна.**

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЁРСТВА (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН).....68

**14. Djumaniyazov Farruxbek Abdulla o'g'li.**

XORAZM VILOYATIDA IQLIM O'ZGARISHI VA INSTITUTIONAL OMILLARNING MINTAQAVIY BARQAROR EKOLOGIK-IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....72

**TARIX**

**1. Дилафруз Ийманова Абдиманнобевна.**

ЎЗБЕКИСТОНДА СОВЕТ ДАВРИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КАДРЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ, МОДДИЙ АҲВОЛИ: МУАММОЛАР ВА САБОҚЛАР (1925-1941 ЙИЛЛАР).....79

**2. Ahmadjonova Inobat Baxodir qizi.**

MOHENJO-DARO VA HARAPPA SIVILIZATSIYALARINING PAYDO BO'LISHI VA TARAQQIYOTI.....88

**3. Otamuradova Roviyaon Olimboyevna. Joldasova Ozoda Ergash qizi.**

MUSTAQILLIK YILLARIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH, VATANIMIZNING QADIMIY VA BOY TARIXINI O'RGANISH.....92

**4. Saotboyev Rahmatjon Madamin o'g'li.**

XORAZM VOHASIDA IBTIDOIY SAHNAVIY UNSURLAR VA MAROSIMIY TOMOSHALAR: IJTIMOIY-MADANIY VA TARIXIY ASOSLAR.....95

**5. Саидов Шавкат Жумабаевич.**

XX АСРНИНГ ХАЛҚАРО МАЙДОНДА ТАН ОЛИНИШИДА БОБООХУН САЛИМОВНИНГ ЎРНИ.....100

**6. Salayev Umrbek Kadambayevich.**

QUYI AMUDARYO HUDUDIDA TOSH VA NEOLIT DAVRLARIDA IJTIMOIY-IQTISODIY MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHI.....106

**7. Safarov Tolib Todjiyevich.**

XIVA XONLIGIGA KO'CHIB KELGAN TURKMAN URUG'LARI HAQIDA AYRIM MA'LUMOTLAR.....111

**8. Atadjanova Dilnoza Ganiyevna.**

JANUBIY XORAZM HUDUDINING ARXEOLOGIK TADQIQOTLARDA O'RGANILISH TARIXI.....116

**FILOLOGIYA**

**1. Xusainova Shaxnozabonu Ergashevna.**

ABU RAYHON BERUNIYNING "OSOR UL-BOQIYA" ASARI VA UNING INGLIZ TILIGA TARJIMASIDA SHARQ RUHI HAMDA KONTEKSTUAL O'ZIGA XOSLIKNI SAQLASH..121

**2. B.Q. Sapayeva.**

O'ZBEK TILI GEMERONIMLARINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI.....125

- 3. Sobirova Gulasal Zokir qizi.**  
THEORETICAL APPROACH TO LINGUISTIC-COGNITIVE APPROACHES IN MODERN LINGUISTICS.....129
- 4. Mokhinur Murodova Azamat qizi.**  
ABBREVIATION AND INTERNET SLANG USAGE AMONG MDIST STUDENTS IN VIDEO GAMES AND ONLINE CHATS.....136
- 5. Yusupova Soxiba Islombek qizi.**  
INGLIZ VA O‘ZBEK BOLALAR SHE’R VA QO‘SHIQLARIDA EMOTSIONAL BO‘YOQDOR SO‘ZLAR.....143
- 6. Sarodbekov Sherzodbek Saforboyevich.**  
BADII ASAR USLUBINI QAYTA TIKLASHDA MUTARJIM MAS’ULIYATI (E. HEMINGWAYNING “TO HAVE AND HAVE NOT” ASARI VA UNING TARJIMASAI MISOLIDA).....147

## PEDAGOGIKA


- 1. Rajabov Shaxzodbek Baxrom o‘g‘li.**  
UMUMIY PEDAGOGIK TAYYORGARLIK JARAYONIDA BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHISINING BADIY MAHORATINI OSHIRISH.....153
- 2. Davletov Mayliboy Yusupovich.**  
O‘ZBEK CHOLG‘U IJROCHILIGI TARIXINI O‘RGANISH ORQALI TALABALARNING MUSIQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI.....161
- 3. Abdirimova Shoxsanam Xudayberganovna.**  
VERIFIKATSIYA TAMOYILINING PEDAGOGIK JARAYONDAGI MOHIYATI.....166
- 4. Allamuratova Xurliman.**  
TA'LIM KONSEPSIYASINING MOHIYATI VA METODIKADAGI O‘RNI.....170
- 5. Sharipov Allabergan Kamilovich.**  
JISMONIY TARBIYA VA SPORT YO'NALISHI BITIRUVCHILARINING KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIK DARAJASINI ISH BERUVCHILAR BAHOSIGA KO'RA TAHLIL QILISH: SO'ROVNOMA ASOSIDA EMPIRIK TADQIQOT.....176
- 6. Jammатов Jasurbek Sharipovich. Komilova Olima Allabergan qizi.**  
TAYYORGARLIK DARAJASINI KROSS-FIT MASHG‘ULOTLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: DOLZARBLIK VA ISTIQBOLLAR.....183
- 7. Ким Татьяна Сергеевна.**  
СТРАТЕГИИ ОБУЧЕНИЯ ИЕРОГЛИФИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКЕ В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ...189

## PSIXOLOGIYA

- 1. Jumaniyazova Ilmira Kamiljanovna. Sobirova Xosiyat Rustambekova.**  
BOSHLANG‘INCH SINIF O‘QUVCHILARNING XOTIRASINING NEYROPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....195
- 2. Xashimova Sayyora Xolmuradovna.**  
IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARDA EMOTSIONAL ZO‘RIQISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....199
- 3. Allayarov Dilshod Raximboy o‘g‘li.**  
ERKIN KURASHCHILARDA MUSOBAQA OLDI EMOTSIONAL HOLATLARINING MOTIVATSION JARAYONLARGA TA’SIRI.....203

Atadjanova Dilnoza Ganiyevna  
Abu Rayhon Beruniy nomidagi  
Urganch davlat universiteti  
mustaqil tadqiqochisi

## JANUBIY XORAZM HUDUDINING ARXEOLOGIK TADQIQOTLARDA O'RGANILISH TARIXI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20157615>

**Annotatsiya:** Maqolada janubiy Xorazm hududining arxeologik jihatdan o'rganilish tarixi bayon qilingan. O'rganilish tarixi ikkita katta davrga ajratilib tahlil qilingan. Bu davrlarda olib borilgan tadqiqotlar bir-biri bilan uzviy bog'liq holda tadqiq qilinganligi ko'rsatilib, har bir davrning yutuqlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** janubiy Xorazm, Xiva, Xazorasp, Xumbuztepa, migratsiya, chorvachilik, mudofaa tizimi.

---

Атаджанова Дилноза Ганиевна  
Имени Абу Райхана Беруни  
Ургенчский государственный университет  
независимый исследователь

## ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ ТЕРРИТОРИИ ЮЖНОГО ХОРЕЗМА В АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

**Аннотация:** В статье описывается история археологических исследований Южного Хорезма. История исследования разделена на два основных периода и анализирована. Показано, что исследования, проводившиеся в эти периоды, были связаны между собой и показаны основные достижения каждого периода.

**Ключевые слова:** южный Хорезм, Хива, Хазорасп, Хумбузтепа, миграция, скотоводство, система обороны.

---

Atadjanova Dilnoza Ganievna  
Named after Abu Rayhan Beruni  
Urgench State University  
independent researcher

## HISTORY OF THE STUDY OF THE TERRITORY OF SOUTHERN KHOREZM IN ARCHAEOLOGICAL RESEARCH

**Annotation:** The article describes the history of archaeological research in South Khorezm. The history of the research is divided into two main periods and analyzed. It is shown that the studies conducted during these periods were interconnected and the main achievements of each period are shown.

**Key words:** southern Khorezm, Khiva, Khazorasp, Khumbuztepa, migration, cattle breeding, defense system.

### KIRISH VA DOLZARBLIGI.

O‘zbekiston mustaqilligi yillarida har bir hududning qadimgi davr tarixini keng miqyosda o‘rganishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Qadimgi davr tarixini o‘rganish orqali insonlarning hayot tarzidagi o‘zgarishlarni va taraqqiyot bosqichlarini tahlil qilish orqali hududlarning o‘ziga xos rivojlanish tomonlariga e‘tibor qaratgan holda, ularning kelajakda rivojlanish yo‘llarini belgilashga ahamiyat qaratilmoqda. Bu ayniqsa, iqtisodiy sohada, ya‘ni aholining tumush tarzini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

### METODLAR VA O‘RGANILISH DARAJASI.

Maqola obyektivlik, tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik izchillik, umumlashtirish, asoslash, arxeologiya, etnografiya, geografiya fanlari natijalaridan foydalanish tamoyillari asosida yoritilgan.

Janubiy Xorazm hududining o‘rganilish tarixini ikkita katta davrga ajratish mumkin:

Birinchi davr: XX asrning 30-yillaridan 1991 yilgacha bo‘lgan davr bo‘lib, bu Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi a‘zolarining faoliyati bilan bog‘liq.

Ikkinchi davr: O‘zbekistonning mustaqilligi davri bo‘lib, XX asrning 90 – yillaridan bugungi kungacha bo‘lgan davrni o‘zida qamraydi. Bu davrda Rossiyalik olimlar bilan hamkorlikdagi ishlar va Xorazm Ma‘mun akademiyasi olimlari faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu ikki davrda olib borilgan tadqiqot ishlari bir – birini uzviy ravishda davom qildirgan bo‘lsa-da, birinchi davrda ko‘plab arxeologik yodgorliklar aniqlangan va ular haqidagi dastlabki ma‘lumotlar tahlil qilingan. Ikkinchi davr tadqiqotlarida mavjud ma‘lumotlar o‘z tasdig‘ini topgan holda, ular yangicha yondoshuv asosida chuqur tahlil qilingan va tabiiy fanlarning yangi yutuqlaridan unumli foydalanish orqali tarixining noma‘lum tomonlari yoritilgan.

**NATIJAR VA MUHOKAMA.** S.P.Tolstov boshchiligida 1938 yilda tashkil qilingan Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiya a‘zolari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida janubiy Xorazm hududidagi ko‘plab yodgorliklar aniqlangan. Bu tadqiqot ishlari natijalari Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasining ilmiy to‘plamlarida, materiallarida [1] va monografiyalarda o‘z aksini topgan.

1958 yilda vohadagi eng qadimiy yodgorlik Xazorasp qal‘asida tadqiqot ishlari boshlangan[2]. Tadqiqot ishlari natijasida yodgorlikning eng qadimgi madaniy qatlami mil.avv. V-IV asrlarga oid ekanligi isbotlangan. Yodgorlikning rejasi, rivojlanish bosqichlari, arxeologik topilmalar va sopol idishlarning ishlanish uslublari ilmiy asosda tahlil qilib berilgan.

Janubiy Xorazm yodgorliklarida olib borilgan tadqiqot ishlari orasida Ya.G‘.G‘ulomovning “Xorazmning sug‘orilish tarixi” monografik asari muhim o‘rinni egallaydi[3]. Asarda Xorazmning sug‘orilish tarixini tadqiq qilish jarayonida janubiy Xorazm hududidagi yodgorliklar va ularning shakllanish omillari yoritib berilgan. Janubiy Xorazm vohasini sug‘orishda Amudaryoning Dovdon, Daryoliq o‘zanlarining o‘rni ko‘rsatilgan.

Xorazm arxeologik- etnografik ekspeditsiyasi a‘zolari tomonidan eng qadimiy shahar Xiva shahrida tadqiqot ishlari XX asrning 30 – yillaridan boshlagan. Uni dastlab tadqiq qilgan Ya.G‘.G‘ulomov shaharning paydo bo‘lishini kushonlar davri bilan bog‘lagan, ya‘ni milodiy I – IV asrlarga oid deb ko‘rsatgan[3]. 1984-1985 yillarda O‘zR FANing Qoraqalpog‘iston bo‘limi Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti olimlari M.M.Mambetullaev, N.Yu.Yusupov, V.N.Yagodin Xiva shahrida qayta tadqiqot ishi olib borib, eng pastki madaniy qatlamni aniqladilar [4]. Xiva shahrining mil.avv. VI asrda bunyod etilganligini asoslovchi dalillarni aniqladilar. 1997 yilda Xiva shahrining 2500 yillik yubileyi xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Bugungi kunda Xiva shahri YuNESKO tomonidan butunjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

1973 yilda M.Mamabetullaev tomonidan Xazoraspdan 16 km. sharqda Xumbuztepa yodgorligi aniqlangan. M.Mambetullaev yodgorlikni tadqiq qilib, uning mil.avv.VI-IV asrlarda qadimgi Xorazm davlatining kulolchilik markazi bo'lganligini ko'rsatgan [5].

XX asrning 90-yillari va XXI asrning boshlarida Xumbuztepa yodgorligi Rossiyaning Sharq xalqlari san'ati Davlat muzeyi xodimi, bo'lim mudiri S.B. Bolelov tomonidan janubiy Xorazmda keng ko'lamda arxeologik tadqiqot ishlari olib borilgan [6] [7]. Olim Xumbuztepadagi tadqiqotni davom qildirib, uni mil.avv.VII asrning oxiri – mil.avv.VI asrning birinchi yarmiga oid deb xulosa bergan. U yerdan chayla, yerto'la, ikki yarusli xumdon va uning yonida ustaxonani ochgan [8]. S.R.Bolelov Xumbuztepaning uchta rivojlanish davrini aniqlagan. Birinchi davri XT–I deb belgilab, uning rivojlanishida ikkita bosqichni – XT–Ia va XT–Ib ko'rsatgan. Yodgorlikning ikkinchi davrida yerto'la va xumdonlar ko'milib, ustidan yangi bino qurilgan. Xumdon qayta ta'mirlangan. Xumbuztepaning moddiy buyumlariga o'xshash moddiy buyumlar undan 3 km pastda joylashgan Toshsaqadan, uning janubida joylashgan tarqoq manzilgoh Qoratoshdan va Xazoraspdan topilgan.

XXI asrning boshlarida Xumbuztepada arxeologik tadqiqot ishlarini Ma'mun akademiyasining Janubiy Xorazm ekspeditsiyasi a'zolari davom qildirganlar. S.R.Baratov Xumbuztepaning eng pastki madaniy qatlamida ibodatxona va kulolchilik ustaxonasining izlarini aniqlagan [9].

XX asrning 60-70 yillarida Tuyamo'yin havzasi hududlaridagi yodgorliklarda arxeologik tadqiqot ishlar M.G.Vorobeva, L.M.Itina, O.A.Vishnevskaya, N.N.Vakturskaya, A.V.Vinogradov, E.D.Mamedovlar tomonidan olib borilgan. Ular Tuyamo'yin suv ombori ostida qolishi mumkin yodgorliklarni tadqiq qilganlar. Bu yodgorliklar karvon yo'lida joylashgan bo'lib, qadimgi Xorazmning boshqa davlatlar bilan aloqa o'rnatishi muhim ahamiyat kasb etgan [10]. Kapparas, Elxaras, Sadvar, Jigarband yodgorliklarida tadqiqot ishlari olib borilgan. Shuningdek, bu davrda janubiy Xorazm hududidan neolit va bronza davriga oid yodgorliklar aniqlangan.

Janubiy Xorazm hududini tadqiq qilishda tadqiqotchi olimlar tomonidan ilgari surilgan munozarali masalalardan biri janubiy Xorazm hududining insonlar tomonidan o'zlashtirilishi masalasi bo'lgan. Bu masala bo'yicha V.Tarn, F.Altxaym, I.Gershevich, V.Xenning, B.G'ofurov, V.M.Masson, I.V.Pyankov, B.I.Vaynberg, A.Asqarov, S.R.Bolelov, S.R.Baratov, N.A.Egamberdiyevlar dastlab xorasmiylar sharqda yashagan, ahamoniylar davrida janubiy Xorazm hududlariga ko'chishgan degan g'oyani ilgari surganlar [11] [12] [13]. S.R.Bolelov hududda olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari natijasida, xorazmliklar migratsiyasi bo'yicha o'z fikr va mulohazalari bayon qilgan. Uning fikricha, mil.avv. VII asrning oxirlarida xorasmiylar janubiy Xorazmga sharqdan kelib joylashganlar. Ular dastlab Tuyamo'yin atroflarida, Amudaryoning chap qirg'og'ida chayla qurib, sopol idishlar ishlab chiqarganlar deb hisoblaydi. Ulardan Xazorasp va Xumbuztepa yodgorliklari saqlanib qolgan degan fikrni ilgari surgan. Xorasmiyning migratsiyasi masalasi N.A.Egamberdiyeva tomonidan tadqiq qilingan. Mazkur masala bo'yicha ilgari surilgan tadqiqotlar asosida xorasmiylar Amudaryoning quyi oqimiga bir vaqtda emas, balki turli davrlarda ko'chib kelganligini arxeologik materiallar asoslagan [14].

XX asrning 60-90 yillarida qadimgi Xorazm qal'alarining mudofaa tizimlari tadqiq qilingan. Bunda Q.Sobirov, M.Mambetullaev, G'.Xodjaniazovlar tadqiqot ishlarini olib borishgan [15]. M.Mambetullaev Janubiy Xorazm mudofaa inshootlarini alohida tadqiqot doirasiga tortadi. Olim janubiy Xorazm mudofaa inshootlarining qurilishini davrlashtiradi va mil.avv. IV-III asrlarda chegara hududlarda mudofaa qal'alari tizimi shakllangan degan fikrni beradi [16].

XX asrning 60 yillarida V.I.Salkin tomonidan qadimgi Xorazm yodgorliklaridan topilgan uy hayvonlari qoldiqlari tadqiq qilingan. V.I.Salkin Xorazmning qadimgi va o'rta asrlarga oid 23 ta arxeologik yodgorlikdagi 24 mingdan ortiq suyak qoldiqlarini tahlil qilgan. O'z tadqiqotida u chorvachilikda janubiy Xorazm bilan shimoliy Xorazm o'rtasida farqlar borligini ko'rsatgan. Yirik shoxli mol shimoliy Xorazmda janubga nisbatan ko'proq boqilgan. Janubiy Xorazmda esa, mayda shoxli mollar shimoliy Xorazmga nisbatan ancha ko'p boqilganligini aniqlagan [17].

Xorazm Ma'mun akademiyasining Janubiy Xorazm ekspeditsiyasi a'zolari S.R.Baratov, M.S.Abdullayev, B.P.Sadullayevlar tomonidan keyingi yillarda janubiy Xorazm yodgorliklarini o'rganishda muhim izlanishlarni amalga oshirganlar. Ular Xumbuztepada arxeologik tadqiqot

ishlarini davom ettirish bilan birga Tuyamo‘yin havzasi bo‘ylaridan mil.avv. VIII–V asrlarga oid ko‘chmanchi chorvadorlar madaniyati –Meshekli va Uch o‘choq yodgorliklari topishgan[18]. Bu yodgorliklar saklar, ya‘ni avtoxton chorvador qabilalarning qabrlari ekanligini asoslashgan [19].

Janubiy Xorazmning qadimgi davriga oid Chingiz tepa, Sandiqli bobo, Voyongan bobo, Tuproqqal‘a (Shovot tumani), Tuproqqal‘a (Xazorasp), Tuproqqal‘a (Xiva), Olmaotishgan, Qalajiq, Kichik Qalajiq, Qirqqiztepa, Qushchachaqirgan qal‘a, Safardiz kabi bir qator qal‘alarida arxeologik tadqiqot ishlari olib borilgan. Xazorasp Tuproqqal‘asini dastlab o‘rganganda S.P.Tolstov uni mil.avv. III – I asrlarga oid deb ko‘rsatgan [20]. Mustaqillik yillarida Janubiy Xorazmda tadqiqot ishlari davom ettirgan arxeolog olim S.R.Baratov yangi materiallar asosida uning mil.avv. V–IV asrlar oid ekanligini aniqlagan [21].

**XULOSA.** Janubiy Xorazmda Xazorasp, Xiva, Qo‘shqal‘a, Xumbuztepa kabi qadimiy shaharlar Xorazm vohasining ilk urbanistik jarayonlariga asos solgan. Keyingi davrlardan to bugungi kungacha bu hudud insonlar tomonidan keng o‘zlashtirilib kelinmoqda. Bu esa, qadimiy qal‘alarning atrofi va o‘rning o‘zlashtirilishiga sabab bo‘lmoqda. Bugungi kunda mavjud qal‘alarda keng tadqiqot ishi olib borish va ularning izsiz yo‘qolib ketishining oldini olish dolzarb masalaga aylangan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. – М.: 1952-1991; Материалы Хорезмской экспедиции. -М.: 1959-1975.
2. Воробьева М.Г., Лапиров-Скобло М.С., Неразик Е.Е. Археологические работы в Хазараспе в 1958– 1960 гг. // МХЭ. Вып. 6. – М., 1963. – С. 137–180.
3. Гуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент: ЎзФА. 1959.
4. Мамбетуллаев М.М., Юсупов Н., Ходжаниязов Г., Матрасулов Ш. Хива по итогам исследований 1985 года // Вестник ККО АН Р Уз. – Нукус, 1986. – № 2. – С. 34–40.
5. Мамбетуллаев М.М. Хумбузтепе – керамический центр Южного Хорезма // Археология Приаралья. Вып. 2. – Ташкент, 1984. – С. 21–38.
6. Болелов С.Б. К вопросу о южных и юго-западных связях Хорезма во второй половине I тыс. до н.э. по археологическим данным (древнехорезмийский археологический комплекс) // Центральная Азия. Источники. История. Культура. – М., 2005. – С. 215–234;
7. Болелов С.Б. Хорезмийское государство // История государственности Узбекистана. Т. I. – Ташкент: Узбекистан, 2009. – С. 193–210.
8. Болелов С.Б. К вопросу о формировании ранней земледельческой культуры в низовьях Амударьи. // Scripta antiqua. Вопросы древней истории, филологии, искусства и материальной культуры. Альманах. Том.5. –М.: Собрание, 2016. –С. 29,32.
9. Баратов С.Р., Матрасулов Ш. Археологические работы в Южном Хорезме // Археологические исследования в Узбекистане, 2002 год. – Ташкент. 2003. Вып. 4. – С. 38–43.
10. Итина М.А. Археологические памятники на древних торговых путях вдоль берегов Амударьи. // Древности Южного Хорезма. Труды ХАЭЭ. Том. 16. – М.: Наука, 1991.
11. Tarn W.W. Greeks in Bactria and India. Cambridge. 1938; Henning W.B. Zoroaster: Politician or witch-doctor? London. 1951;
12. Gershevich I. The Avestian Hymn to Mithra. Cambridge. 1959;
13. Пьянков И.В., Хорасмии Гекатея Милетского. // “Вестник древней истории”, 1972, № 2.
14. Egamberdieva N.A. Amudaryo havzasi hududlarining qadimgi madaniyati (mil.avv. VIII-mil. IV asrlar). – Toshkent. Innovatsiya-ziyo, 2020. – B.77.
15. Собиров Қ. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарларининг муҳофаа иншоотлари. – Тошкент: Фан, 2009.
16. Мамбетуллаев М. История и культура Южного Хорезма античной эпохи (города и поселения в IV в. до н.э. – IV в. н.э.). Автореф. на соис.уч.ст.докт. ист.наук. – Тошкент. 1994.

17. Цалкин В.И. Фауна древнего Хорезма в свете данных археологии. – С.154. Таб. 41.
18. Баратов С.Р. Новые археологические материалы к истории древнего Хорезма. /Хоразм Маъмур академияси ахборотномаси. 4 –сон. 2014. –Б. 30-40.
19. Баратов С.Р. К проблеме истоков урбанизированной культуры низовий Амударьи. //Ўзбекистон санъати дунё маданиятининг ажралмас қисми: тарих ва замонавийлик. Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. –Тошкент. 2015. - Б.38.
20. Толстов С.П. Древности Верхнего Хорезма (Основные итоги работ Хорезмской экспедиции ИИМК 1939 г.) // ВДИ. – М., 1941. – 1 (14). – С. 184.
21. Баратов С.Р. Археологические работы в Южном Хорезме // Археологические исследования в Узбекистане, 2003 год. – Ташкент: 2004. Вып. 4. – С. 46–47.

# «MAMUN SCIENCE» JURNALI

## ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

### Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

### Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

### Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].